

Chiziqli algoritm blok-sxemasi

Harakatlari ketma-ket bajariladigan algoritm chiziqli algoritm deb ataladi.



1. Algoritmni yozishning ikkita turli usulini o'rganing. Sizningcha, qaysi usul qulay?

“Tabriknoma yaratish” algoritmi


So'zlar bilan ifodalash usuli

Boshlanishi

- 1 Bir varaq qog'oz oling.
- 2 Uni teng ikki buklang.
- 3 Birinchi betiga rasm chizing.
- 4 Ikkinchi betini bo'sh qoldiring.
- 5 Uchinchi betiga tabrik matnini yozing.

Tugashi

Blok-sxema



Chiziqli algoritmlar kundalik hayotda ko'pincha oddiy masalalarni yechishda qo'llaniladi.




2. Quyidagilardan foydalanib, "Robotning batareykagacha bo'lgan yo'li" tayyor algoritmini o'rganing:

algoritmning boshlanishi va tugashini ko'rsatadigan 2 ta **oval**;

aniq uchta harakatni o'z ichiga olgan 3 ta **to'g'ri to'rtburchak**;

harakatlar tartibini ko'rsatadigan 4 ta **strelka**.

Aniq uchta harakatdan foydalanib, robot batareykagacha borishi uchun boshqacha yo'l topa olasizmi?



Boshlanishi

2 qadam o'ngga

3 qadam pastga


1 qadam o'ngga

Tugashi



3. Algoritmndagi harakatlarni to'g'ri tartibda ayting.

“Tuxum qovurish” algoritmi



4. Murakkab matematik ifodalarni amallar bo'yicha yechayotganda ham biz ma'lum bir algoritmgga rioya qilamiz. Uchta amaldan iborat matematik ifoda o'ylab toping. Sinfdoshlaringizdan uni yechish algoritmini aytib berishlarini so'rang.



5. Savollarga javob bering.

- Chiziqli algoritm deb nimaga aytiladi?
- Chiziqli algoritm blok-sxemasi qanday shakllardan tashkil topadi?
- Ovallar algoritmning o'rtasida joylashishi mumkinmi? Fikringizni tushuntiring.

